

JAHON ADABIYOTIDA JONIVORLAR BILAN BOG'LIQ REALISTIK
HIKOYALARNING JANRIY XUSUSIYATLARI

Qurbonova Nodira Roziqovna

Buxoro davlat universiteti filologiya fanlari falsafa doktori(f.f.f.d.)

Eshonqulova Nasiba Husniddin qizi

Buxoro davlat universiteti

Adabiyotshunoslik: ingliz adabiyoti mutaxassisligi

II bosqich magistranti

n.h.eshonqulova@buxdu.uz

Annotatsiya: Maqolada jahon adabiyotida jonivorlar bilan bog'liq realistik hikoyalarning janriy xususiyatlari, ekotanqid va uning o'ziga xos belgilari Ernest Seton-Tompson hamda Ser Charlz G. D. Roberts hikoyalari misolida tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: jonivorlar bilan bog'liq realistik hikoyalar (real animal stories), Ernest Seton-Tompson, Ser Charlz G.D.Roberts, ekotanqid, "yashil janr".

Hayvonlar, qushlar, baliqlar tabiatning bir bo'lagi, jonli mavjudot sifatida har bir zamonda va makonda alohida muhim ahamiyat kasb etgan. Insoniyat tarixida nafaqat real hayotda, balki adabiyot hamda kino sanoatida ham ularning alohida o'rni mavjud. Ba'zan ular insonga shu qadar yaqin do'st yoxud nihoyatda sadoqatli yondosh bo'ladilarki, "Hayvonlardagi qanday xususiyat ularni insonga naqadar yaqin qildi ekan?", degan savol tug'ilishi, tabiiy, albatta. Kanada adabiyotida ham hayvonlar har doim muhim mavqega ega bo'lgan.

Jonivorlar haqidagi qisqa hikoyalar yozish sohasidagi eng muhim kashshoflardan biri, albatta, Ernest Seton-Tompsondir. Seton-Tompson o'zining "The Ten Commandments in The Animal World" (1923) ("Hayvonlar dunyosidagi o'n amr") va hayvonlar haqidagi realistik hikoyalardan tashkil topgan "Wild Animals I have known" (1898) ("Men bilgan yovvoyi hayvonlar") to'plami bilan dunyoga tanilgan. Bu borada ikkinchi yetakchi yozuvchi o'zining mashhur "Neighbors Unknown" (1910) ("Noma'lum qo'shnilar") nomli hikoyalar to'plami bilan tanilgan Ser Charlz G. D. Roberts hisoblanadi. Ikkala yozuvchi ham hikoyalarda hayvonlar hayoti va ularning psixologiyasiga nisbatan o'z ilmiy hamda badiiy qarashlarini tasvirlaydilar¹.

Kanada hayvonlari haqidagi hikoyalarning asosiy vazifalaridan biri – bu o'quvchiga dunyoni hayvonlarning nuqtayi nazari, shuningdek ular o'zlarini va atrof-muhitni qanday his qilishlari, fikrlashlari va insonlar bilan birgalikda yashashlari uchun

¹ Qurbonova Nodira Roziqovna, and Eshonqulova Nasiba Husniddin qizi. "LOBO' HIKOYASIDAGI OBRAZLARGA XOS XUSUSIYATLAR HAMDA TABIAT TASVIRLARI UYG'UNLIGI". PEDAGOGS Jurnal, vol. 10, no. 4, June 2022, pp. 188-91.

vositachilik qilishga harakat qilishlarini haqqoniy tarzda ko'rsatishdir. Garchi Kanada adabiyotida hayvonlar tajribasini aks ettirishga bo'lgan ba'zi urinishlar tanqid qilinganiga qaramay, hayvonlar haqidagi realistik qisqa hikoyalar yozish eng noyob janrlardan biri bo'lib qolmoqda. Jiddiy tanqidlarga qaramay, Seton-Tompson va Charlz Roberts kabi o'n to'qqizinchi asr yozuvchilari o'zlarining qisqa hikoyalarida hayvonlarni aqlsiz avtomatlar yoki faqat instinkt bilan harakat qiladigan mavjudotlar sifatida emas, balki hissiy va insoniy xususiyatlarga ega tabiat mavjudotlari sifatida tasvirlaganlar.

Bir so'z bilan aytganda, hayvonlar haqidagi hikoyalar xususida so'z borganda, savol tug'ilishi mumkin: "Hayvonlarni o'rganish qanday qilib adabiyot sohasida sezilarli darajada kengaydi?" Berilishi mumkin bo'lgan javoblardan biri bu urbanizatsiyaning ortib borayotgani, natijada bu odamlar va atrofimizdagi jonli olam o'rtasidagi masofaning ortib borishiga olib keldi, xoh tabiat kengliklari va xoh cho'l-u biyobon bo'lsin, odamlarning tabiat qo'ynida yashashga intilishi nihoyatda kuchaydi va bu o'z navbatida hayvonlarni yaqindan o'rganishga turtki bo'ldi.

Hayvonlarning insonning hamrohi sifatidagi ahamiyati doimo o'ziga xos hodisa bo'lib kelgan. Nafaqat real hayotda, balki adabiyot va kinoda ham insoniyat tarixi davomida hayvonlarga alohida maqom berilgan. Ba'zan ular biz uchun eng yaxshi do'st yoki oddiygina sodiq hamrohni o'zida mujassam etadi. XIX asr oxiri va XX asr boshlariga oid hayvonlar haqidagi hikoyalar Charlz G.D.Robertsning "Noma'lum qo'shnilar" (1910) to'plamidan "Dunyo tomida" va Ernest Seton-Tompsonning "Men bilgan yovvoyi hayvonlar" turkumidan "Kumushqashqa. Qarg'a hikoyasi", Farli Movatning XX asrdagi yarim avtobiografik asari bilan boshlangan uch romani, Kanada shimoli va Arktika bo'rilari haqidagi "Hech qachon yig'lamaydigan bo'ri" (1963), shuningdek yana bir asar Barbara Goudining "Oq suyak" (1998) romani bo'lib, unda fillarning hayoti va ularning Afrika butalarida omon qolish uchun har kungi kurashi tasvirlangan. Bundan tashqari, Yann Martelning "Pi hayoti" (2001) deb nomlangan eng ko'p sotilgan postmodern fantastika asari omon qolish mavzusiga e'tibor qaratilgan bo'lib, eng muhimi inson va hayvon munosabatlari va omon qolish uchun kurash jarayonida qahramonning Xudoga bo'lgan ishonchi tasvirlanadi². Shu o'rinda yuqorida tilga olingan badiiy asarlarni chuqurroq tahlil qilishni boshlashdan oldin, tabiat bilan bog'liq eng muhim xususiyatlarni o'z ichiga olgan ekologik tanqid masalasiga oid umumiy tarixiy ma'lumotlar keltirib o'tamiz.

Adabiy ekologiyani yaxshiroq tushunish uchun "ecocriticism" ya'ni "ekotanqid" atamasiga aniqroq ta'rif berish kerak bo'ladi. Shunday qilib, adabiyotshunoslik sohasi, jumladan, uning dastlabki rivojlanish bosqichlari to'liq muhokama qilinsa, ekotanqid haqida gap ketganda, bu atama bilan turli bog'liqliklar mavjud, chunki u adabiy

² Lidström, Susanna, and Greg Garrard. "'Images adequate to our predicament': Ecology, Environment and Eco-poetics." *Environmental Humanities* 5.1 (2014): 35-53.

tanqidagi yangi yondashuvdir. Xususan, ekologik tanqid sohasidagi dastlabki nufuzli nashrlardan biri bo'lgan Cheryll Glotfeltning "Introduction to the Ecocriticism Reader" (1996) asarida "...ekokritisizm, oddiy qilib aytganda, ekotanqid adabiyot va jismoniy muhit o'rtasidagi munosabatni o'rganuvchi fandir"³, – deya ta'riflanadi.

Feministik tanqid til va adabiyotni gender nuqtayi nazaridan tahlil qilgani, marksistik tanqid bizga matnlarni o'qish usullari va iqtisodiy sinf haqida xabardorlikni keltirib chiqarganidek, ekotanqid adabiyotshunoslikka yerga asoslangan yondashuvni asoslab bera oladi. Ko'pchilik adabiyotshunoslar Glotfeltning fikriga qo'shilgan holda ekologik tanqidni "...adabiyot va jismoniy muhit o'rtasidagi munosabatni o'rganish"⁴ deb ta'riflaydilar. Biroq, ekologik tanqid ancha murakkab va shuning uchun qo'shimcha tushuntirishni talab qiladi. Shu sababli, Glotfelti: "... barcha ekologik tanqidlar inson madaniyati va jismoniy dunyo bilan bog'liqligi, unga ta'sir qilishi va undan ta'sirlanishi haqidagi asosiy yondashuvlarni qamrab oladi"⁵, – deya ta'kidlagan. Shunday qilib, ekokritistlar yozuvchi, badiiy matn va dunyo o'rtasidagi munosabatni shunchaki tekshirmaydilar, balki butun ekosferani o'z ichiga olgan holda dunyo tushunchasini kengaytiradilar. Bu boradagi yana bir mutaxassis Greg Garrardning ta'kidlashicha, ekotanqid "inson va noinsoniy munosabatlarni insoniyat madaniyati tarixi davomida o'rganadi va "inson" atamasining o'zini tanqidiy tahlil qilishni talab qiladi"⁶, – deya ta'riflagan.

Ekokritisizm atamasi birinchi marta 1978-yilda Uilyam Ryukertning asarida uchraydi. Umuman olganda, adabiy ekologiyani o'rganish adabiyot va borliq o'rtasidagi barcha mumkin bo'lgan munosabatlarni o'z ichiga oladi. Asosan, adabiyotshunoslik sohasida izlanuvchi ekokritistlar o'zlariga tabiatning ma'lum bir matn turida (masalan, she'rlar, hikoyalar va romanlar) qanday aks ettirilganligi yoki hikoya syujetida jismoniy muhit qanday rol o'ynashi kabi savollarni berishadi.

Ekotanqid bilan bog'liq bo'lgan boshqa atamalar ham mavjud, xususan, ekopoetika, ekologik adabiy tanqid va yashil madaniyatshunoslik shular jumlasidandir. Ushbu "yashil janr" ning rivojlanishi haqida qisqacha ma'lumot beradigan bo'lsak, ekologik adabiyotshunoslikning tug'ilishi 1980-yillarning o'rtalarida sodir bo'ldi. Bu vaqtda olimlar atrof-muhit adabiyotshunosligi sohasini o'rganishni boshladilar va 90-yillarning boshlarida bu soha sezilarli darajada o'sdi. Ajablanarlisi yo'qki, universitetlar o'zlarining atrof-muhitni o'rganish bo'yicha o'quv dasturlariga adabiyot seminarlarini kiritishni boshladilar va ingliz bo'limlari ekologiya bo'yicha adabiyotlar bo'yicha kichik fanlarni taklif qila boshladilar. Qizig'i shundaki, Renodagi Nevada

³ Glotfelty, Cheryll, and Harold Fromm, eds. *The ecocriticism reader: Landmarks in literary ecology*. University of Georgia Press, 1996.

⁴ Glotfelty, Cheryll, and Harold Fromm, eds. *The ecocriticism reader: Landmarks in literary ecology*. University of Georgia Press, 1996.

⁵ Glotfelty, Cheryll, and Harold Fromm, eds. *The ecocriticism reader: Landmarks in literary ecology*. University of Georgia Press, 1996.

⁶ Garrard, Greg, ed. *Teaching ecocriticism and green cultural studies*. Springer, 2016.

universiteti 1990-yilda adabiyot va atrof-muhit bo'yicha birinchi akademik lavozimni yaratdi. 1920-yillarning boshidan boshlab adabiy ekologiyada doimiy yuksalish kuzatilganini ko'rish mumkin. 1992-yilda yangi "Adabiyot va atrof-muhitni o'rganish assotsiatsiyasi" ("*Association for the Study of Literature and Environment*" – ASLE) "inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni ko'rib chiqadigan adabiyotga oid g'oyalar va ma'lumotlar almashinuvini rag'batlantirish va yangi ekologik adabiyotga an'anaviy va innovatsion ilmiy yondashuvlar va fanlararo ekologik tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash" missiyasi bilan tashkil etilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ekologik tanqidning haqiqiy ildizlari XX asrdan boshlab qiziqish mavzusi bo'lib kelgan va bu soha hanuzgacha ahamiyat va dolzarblik kasb etmoqda. Shu o'rinda, bugungi kunning eng mashhur ekotanqidiy yozuvchilari: Ian McEwan, Ernest Seton-Tompson, Margaret Atwood, T.C. Boyle, Ernest Kallenbach, shuningdek, Farley Mowat, Barbara Govdiy va Yann Martel ekokritizm tabiatning adabiyotda qanday aks etishini o'rganishgan bo'lsa-da, ushbu "yashil" janrda ko'rib chiqiladigan aniq mavzular keng ko'lamli. Darhaqiqat, tabiat ekologik tanqidiy tadqiqotlarning yagona yo'nalishi emas. Ushbu janr bilan bevosita bog'liq bo'lgan umumiy mavzular, xususan, shaharlar, o'ziga xos geografik mintaqalar, daryolar, tog'lar bilan bog'liq bo'lsa-da birinchi navbatda, hayvonlar masalasi inson ruhiyatiga ta'sir etuvchi omillardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Garrard, Greg, ed. *Teaching ecocriticism and green cultural studies*. Springer, 2016.
2. Glotfelty, Cheryll, and Harold Fromm, eds. *The ecocriticism reader: Landmarks in literary ecology*. University of Georgia Press, 1996.
3. Lidström, Susanna, and Greg Garrard. "'Images adequate to our predicament': Ecology, Environment and Ecopoetics." *Environmental Humanities* 5.1 (2014).
4. Qurbonova Nodira Roziqovna, and Eshonqulova Nasiba Husniddin qizi. "“LOBO’ HIKOYASIDAGI OBRAZLARGA XOS XUSUSIYATLAR HAMDA TABIAT TASVIRLARI UYG'UNLIGI”". PEDAGOGS Jurnal, vol. 10, no. 4, June 2022.